

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Xalikov	
Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati	211
A.A.Mirzayev	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari	217
S.A.Azamova	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari	223
M.I.Yusupova	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
M.M.Aralov	
OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida	235
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili	124
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	241
J.X.Boysunov	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
B.I.Beshimov	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili	250
Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monitoringi	255
M.X.Raxmonova, M.O.Karimova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbligi va mohiyati....	260
N.S.G'afurova	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
G.M.Камалова	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе.....	266
R.M.Ubaydullayev	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash	270
A.K.Nafasov	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida	274
F.A.Ikramov	
Mustaqil ta'lim faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta'limini tashkil etishning pedagogik omillari.....	277
D.T.Tursunova	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari	281
D.D.Boymirzaeva	
O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili	286
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda OTMlar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari.....	292
S.S.Qozaqova	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	298
F.A.Askarov	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lim samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
D.Z.Isaboyeva	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi)	308
M.I.Ne'matov	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish	311

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKILY FAOLIYAT VA BOSHQARUV AMALIYOTINING MAVJUD MUAMMOLARI TAHLILI

АНАЛИЗ ОРГАНИЗАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ И СУЩЕСТВУЮЩИХ ПРОБЛЕМ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА

ANALYSIS OF ORGANIZATIONAL ACTIVITY AND MANAGEMENT PRACTICE AND EXISTING PROBLEMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

Boymirzaeva Dilbar Dmitrievna¹

¹Namangan davlat universiteti doktoranti

Аннотация

Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati va boshqarishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirish vazifalari to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается необходимость реформирования организационно-управленческих механизмов в высших учебных заведениях сегодня и внедрения в них новых принципов, а также внедрения новых подходов к управлению, подготовке кадров и системе непрерывного образования, государственному регулированию динамики развития, и структурные изменения государственных и негосударственных образовательных учреждений изложены мнения о задачах совершенствования.

Abstract

In this article, the training of qualified and competitive personnel in the higher education system is an urgent socio-economic issue, and the introduction of new approaches to the organization and management of educational activities in the higher education system, personnel training and continuous education system, the dynamics of development and structural changes of state and non-state educational institutions are expressed.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, rahbar-xodimlar, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, boshqaruv vazifalari, barkamol inson, boshqaruv madaniyati, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: высшее образование, руководители-работники, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, задачи управления, совершенный человек, культура управления, гражданское общество, научно-методология.

Key words: higher education, leaders-employees, modern worldview, scientific-theoretical views, continuous education, management tasks, perfect person, educational standards, civil society, scientific-methodology.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatni isloh qilish, uni yangi bosqichga olib chiqishda boshqaruv kadrlariga yuksak mas'uliyat yuklanmoqda. Shunindek, boshqaruv tuzilmalarida ham o'zgarishlar bo'lmoqda va boshqaruvga yangicha tamoyillarni olib kirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. An'anaviy boshqaruv tartibotining yangi zamonga, yangicha ishlash sharoitiga dosh bera olmasligi ortidan innovatsion yechimlarga asoslangan boshqaruv usullarini olib kirishning samaradorligi kunimizda o'z isbotini topmoqda. Zero, «davlat va jamiyatni boshqarishda shaxsdan aql-idrokka asoslanish talab qilinadi. Boshqarishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish jamiyatni ilmiy boshqarishning ijtimoiy-madaniy texnologiyalari qanchalik joriy etilgani bilan bog'liqdir. Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z-o'zicha bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'iladi».[1] Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o'z hayotida his qilishi kerak. Buning iuchun barcha bo'g'indagi rahbarlar foizlar, raqamlar, qog'ozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlash uchun ishlashi shart. Shu bois, jamiyatning har bir bo'g'inida, har bir sohada boshqaruv tamoyillarini, usullarini, rahbar dunyoqarashini, fikrlash tarzini o'zgartirish ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'limga ommaviy talabning o'sishi tendentsiyasi aniq ko'rinadigan makro darajadagi oliy ta'limda boshqaruvning bozor tamoyillariga moslashish jarayonlari, asosan, ma'muriy islohotlar, yangi davlat boshqaruvining joriy etilishi va oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat ulushining kamayishi natijasida sodir bo'ladi. Bozor yondashuvi oliy ta'lim samaradorligini

baholashda tizim raqobatbardoshligi, samaradorligi, hisobdorligi, shaffofligi va sifatining muhimligini ta'kidlaydi. Mikrodarajada ushbu tendentsiyalar Oliy ta'lim muassasalarining daromad manbalari va moliyaviy oqimlarini faol ravishda diversifikatsiya qilishga, zamonaviy boshqaruv va byudjetlashtirish usullarini joriy etishga va o'z faoliyatini mijozga yo'naltirishga majbur qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019–yil 3-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qaroriga muvofiq, "OTMlarning mustaqilligi, akademik erkinliklar, resurslarni mustaqil boshqarish, strategik qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos yaratib, davlat aralashuvining roli kamaymoqda. Oliy ta'limdagi institutsional o'zgarishlar universitetlarning erkinlik darajasini kengaytirishga qaratilgan, chunki xaridorlarning turli guruhlariga taqdim etiladigan turli xil ta'lim shakllariga talab va taklifni tartibga solish jarayonida bozor mexanizmlari ko'pincha ma'muriy mexanizmlarga qaraganda samaralidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish uchun esa oliy ta'limda erkin raqobat ruhi, cheksiz ilmiy izlanuvchanlik, tanqidiy fikrlash, innovatsiya va ijodkorlikni shakllantirishga ko'maklashuvchi muhit va mehnat sharoitlarini yaratish zarur. Ayni paytda to'liq boshqaruv avtonomiyasiga ega OTMlar yanada moslashuvchan bo'lib bormoqda. Boisi, ular tashqi majburiy standartlar bilan bog'lanmagani hisobiga o'z resurslarini boshqarish va tez o'zgaruvchan global bozor ehtiyojlariga javob berishi mumkin. Umuman olganda, mablag'larni taqsimlash, o'qituvchi vaxodimlarni yollash, ularga ish haqini belgilash uchun har bir universitetning o'z moliyaviy avtonomiyasi bo'lishi lozim. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasiga 3 xil yondashuv ham alohida ahamiyatga ega. Unda mavjud OTMlarni modernizatsiya qilish, ularning birlashishi hamda yangi universitetlarni tashkil etishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida "Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha, tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo'lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta'lim muassasalarini (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish vaxususiyashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, mamlakatimizning kamida 10 ta universiteti 2030-yilga qadar xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlar reytingida oliy o'quv yurtlari ro'yxatining dastlabki 1000 pozitsiyasiga kirishi ko'zda tutilgan. Buning uchun, albatta, oliy o'quv yurtlarini o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga bosqichma bosqich o'tkazish, o'quv jarayoniga zamonaviy kredit modul tizimini joriy qilish talab etiladi.

Bugungi kunda dunyodagi universitetlarning ta'lim va tadqiqot faoliyati eng nufuzli, xalqaro miqyosda tan olingan Times Higher Education World University Rankings (Buyuk Britaniya) va QS World University Rankings (Buyuk Britaniya) kabi tizimlarda baholanadi. Universitetlar reytingida asosan ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatidan kelib chiquvchi ko'rsatkichlarga asoslaniladi, ta'lim sifati, xalqaro aloqalar, so'nggi 5 yil natijalari tahlil qilinadi. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida 2019-yilda O'zbekiston universitetlari — Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti QS World University Rankings for Eastern Europe and Central Asia (EECA) reytingida ilk bor 301-350 o'rinlarni, 2020-yilda O'zbekiston Milliy universiteti Times Higher Education World University Rankings reytingida 601 o'rinni, Toshkent tibbiyot akademiyasi 301-400 o'rinni hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 201 o'rinni egalladi. 2019-yilda Digital Commons platformasi asosida "Elsevier" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Uzbekistan Research Online" raqamli platformasi ishga tushirildi. U ilmiy maqolalarni oliy ta'lim muassasalari ta'lim jurnalida ikki darajali yopiq retsenziyalash imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda mazkur platformaga joylangan jurnallardagi 4 893 ta ilmiy maqolaning matnli fayllari dunyoning 116 mamlakatidagi ta'lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlari tomonidan foydalanish uchun 66,6 ming marta yuklab olingan. Buni O'zbekiston ilmiy jurnallarini xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishidagi muhim natijalardan biri sifatida baholash mumkin. Oliy attestatsiya komissiyasining bu platformadagi jurnallarda nashr etilgan maqolalarini ingliz tilidaxalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tenglashtirish borasidagi qarori esa yoshlarimiz, ayniqsa, doktorlik dissertatsiyalari ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilarga xorijiy nashrlarda maqolalarni chop etish muammosini hal etishda ajoyib imkoniyat yaratdi.

Bunday loyihalarni amalga oshirish uchun har bir alohida mintaqacha chuqur tahlil va echim izlashi kifoya. Ko'pchiligimiz havas qiladigan jahon darajasidagi universitetlar uchun yagona retsept yoki sehrlil formula mavjud emas. Shunchaki har bir davlat turli rivojlanish usullaridan aynan o'zining salohiyati va resurslariga mos keluvchi to'g'ri strategiyani tanlay bilishi kerak, xolos. O'zbekiston ham bu borada o'zi tanlagan eng to'g'ri va samarali yo'ldan bormoqda.

«Yuksalish» umummilliy harakati raisi, Oliy Majlis deputati Bobur Bekmurodov «Oliy ta'lim: nomarkazlashtirish, masofaviy ta'lim, standartlar haqida» sarlavhali postdaoliy ta'lim tizimining yangi rahbariyatiga murojaat qilib, tizimda amalga oshirilishi kerak bo'lgan to'rtta asosiy qadamni sanadi.

U oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda erishilgan muhim ijobiy o'zgarishlarni e'tirof etgan, jumladan, bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga etgani, ta'limning bakalavriat, magistratura va sirtqi shakllari uchun kvotalar oshirilib, kechki ta'lim shakli joriy etilganini qayd etib o'tgan.

Mamlakatimizda Oliy ta'lim sohasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tegishli vakolatli o'rganlar tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan boshqariladi. Shuningdek, O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalarining rektorlari kengashi tashkil qilingan bo'lib, bundan maqsad oliy ta'limni boshqarishning ijtimoiy shakllarini, yangicha ko'rinishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur kengashning faoliyati belgilangan Nizom asosida tartibga solinadi. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv ishlari O'zbekiston qonunchiligi va mazkur nizom doirasida amalga oshiriladi.

Milliy ta'lim tizimini muvaffaqiyatli modernizatsiya qilish davlat ta'lim strategiyasining natijasidir. Kredit tizimi, masofadan o'qitish texnologiyalari, O'zbekistonoliy o'quv yurtlarida bakalavr - magistratura - doktorantura turi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning ko'p bosqichli modeli muvaffaqiyatli tatbiq etilganligi buning dalilidir.

Kredit ta'lim tizimini tatbiq etish bo'yicha O'zbekiston tajribasi qo'shni mamlakatlarning ta'lim sohasidagi etakchi mutaxassislari tomonidan o'rganilmoqda.

Boloniya jarayoni tamoyillariga binoan avvalgi chiziqli ta'lim tizimidan kredit amaliyotiga o'tish usullari alohida qiziqish uyg'otmoqda. O'zbekistonning ta'lim siyosati Boloniya jarayonining ustuvor yo'nalishlariga asoslanib, talabalar va professor-o'qituvchilarning akademik harakatchanligi orqali sifat menejmenti tizimini, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, akkreditatsiyadan o'tish, ta'limni xalqaro darajaga ko'tarish orqali kafolatli yuqori sifatli ta'lim berishga qaratilgan.

O'zbekistonoliy ta'lim tizimi global tendentsiyalarga mos ravishda ishonchli rivojlanmoqda, islohotlar jarayoni ilg'or, akademik erkinlik o'quv jarayonining haqiqiy atributiga, O'zbekiston universitetlari rivojlanishining turtkisiga aylanmoqda. Biroq, islohotlar bosqichida, O'zbekistonoliy ta'limi, xorijiy universitetlar tsingari, akademik avtonomiyani haqiqiy, maksimal darajada amalga oshirish muammolariga duch keladi. Akademik erkinlik bugungi kunda universitetlar va vakolatli organlar tomonidan har xil talqin qilinmoqda va tarqatilgan, cheklangan shaklda ta'lim muhitida an'anaviy asl ma'noda qo'llaniladi.

NATIJALAR

Bugungi kunda ta'lim rivojlangan mamlakatlarda eng muhim iqtisodiy manbalardan biri ekanligi tan olingan. «O'zbekistonda ta'lim tizimini boshqarishda ham qator kamchiliklar mavjud. Ta'lim sohasini boshqarishni bitta vazirlikka yuklatish vaqti keldi. AQSH va Rossiya kabi mamlakatlar tajribasi buni ko'rsatib turibdi. Ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, ularning mustaqilligini kuchaytirish uchun rektor, prorektorlarni tayinlashda o'quv yurti jamoasi fikrini hisobga olish, rahbariyatning 5 yil ishidan so'ng faoliyatlarini baholash kerak».[2] Iqtisodiyot hozirgi paytda tobora ko'proq ishchining malakasiga bog'liq bo'lib, bu borada umuman ta'limning o'rni, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Boshqa tomondan, bu o'zgarishlarni o'rganish va o'rgatish kerak. Bu ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning vazifasidir. Jamiyat taraqqiyoti uchun o'qituvchi o'zgarishlardan xabardor bo'lishi, ulardan saboq olishi va o'quvchilarda ushbu qobiliyatni rivojlantirishi ayniqsa muhimdir. Buning uchun oliy ta'limda o'qituvchi o'zgarishlarning qurboniga emas, balki ularning manbai va ko'rsatuvchisiga aylanadigan yangi mentalitetni (fikrlash tarzini) shakllantirish kerak.

So'ngi yillarda O'zbekistonda bitiruvchilarni oliy ta'lim orqali qamrab olish ko'lami kengaymoqda. 2016-yilda bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrab olish 9 foiz bo'lgan bo'lsa 2020-yilda

bu ko'rsatkich 25 foizni tashkil etdi. Bu jarayon davom etsa o'quvchilarni oliy dargohlarga qabul qilish ko'rsatkichlarini yanada oshishiga va adolatli raqobat muhitini shakllanishiga olib keladi. «Oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Keyingi yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi».[3] Shuningdek, «ta'limning notizim olib borilishi xavfi mavjud, ya'ni o'qitiladigan kurslar majmuasi soha o'qituvchilarining bor-yo'qligiga asoslanib tanlanadi. Ko'p hollarda chiroyli nomlangan kurslar ortida obyektiv shaklda eski mazmun yotadi. Dasturlarni shakllantirish jarayonida, aksar oliy o'quv yurtlari bilimlar tizimi haqida o'ylamasdan, balki ta'lim xizmatlarining kompetent bo'lmagan iste'molchisining talablarini qondirishga urinishadi»[4]. Oliy ta'lim muassasalari menejmentida kadrlar bilan ishlar va ularni yoshartirish masalalari ham dolzarb muammolardan biridir. O'zbekistonda bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrab olish ko'rsatkichlari ortib borishi bilan birga professor-o'qituvchilarining yosh ko'rsatkichlari ham yuqorilab bormoqda. «Yosh o'qituvchilarni tayyorlash talabalar soni oshishi sur'atidan sekinroq o'tmoqda. Shu sababdan universitetlar malaka saviyasi past o'qituvchilarni ishga olishga majbur bo'layotganliklari holatlari ko'paygani kuzatilmoqda».[5]

Shu maqsadda oliy ta'lim boshqaruvini takomillashtirish, boshqaruvga yangicha tamoyillarni olib kirishga doir islohotlar ham olib borilmoqda. Jumladan, 2019-yil 11-iyulda oliy ta'lim sohasi boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni hamda «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Qarori imzolandi. Natijada oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'z o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tkazish jarayoni boshlandi. Bu esa oliy ta'lim boshqaruvi uchun yuksak mas'uliyatni yuklaydi. Rahbariyat moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqiga ega bo'lgandan keyin unda akademik erkinlik shakllanadi va boshqaruvda o'zgarishlar qilish va xodimlarni rag'batlantirish masalasida bir qator imkoniyatlar paydo bo'ladi.

MUHOKAMA

O'zbekistonda oliy ta'lim boshqaruvidagi yuqoriga bo'ysunish, yuqoridan kelgan buyruqni so'zsiz bajarish talabi, mantiqsiz ishlarni bajarilishini va mantiqsiz faoliyatni yo'lga qo'yilishiga olib keladi. Bunday yuqoriga bo'ysunish va o'ta markazlashgan va standartlashtirilgan ta'lim va boshqaruv oliy ta'limni akademik mustaqilligini yo'qqa chiqarmoqda. «O'zbekistonda oliy ta'limning eng ayancli muammosi talabalarining iqtisodiyot talablariga bog'liq bo'lmagan bilimlari saviyasining pastligidir. Bu holatning arab davlatlarida sodir bo'lgan vaziyatga — ko'p sonli oliy ma'lumotli hisoblanadigan, biroq ishsiz yosh aholining mavjudligiga olib kelishi xavfi mavjud».[6] Oliy ta'lim boshqaruvi muassasa talabalarining sifatli bilim olishi, erkinligi, qiziqishlarini rag'batlantirish va yo'naltirish, ishchi hodimlarga qulay ish sharoitlarini ta'minlash, huquqlarini himoya qilish, bir so'z bilan aytganda oliygohda yuqori sifatli xizmatni taklif etish o'rniga yuqoridan kelgan topshirig'i buyruqlarni bajarish, yuqori uchungina ishlash, oliy ta'limdagi asosiy faoliyat qog'ozlar bilan ipshlash va majlislardan iborat deb bilish tizimi ta'limni yanada tanazzulga yaqinlashtirmoqda. Shu bois boshqaruvda yangicha tamoyillarni joriy qilish, uni erkinlashtirish va moliyaviy mustaqillikka erishish, shu bilan birga oliygohlarga mustaqillik tamoyillarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun esa, «Oliy ta'lim vazirligi yangi ta'lim maydoni kontseptsiyasini faol ishlab chiqishi lozim, va bu kontseptsiyada Bolonya shartnomalari talablari bilan bir qatorda milliy ta'limning ustuvor yo'nalishlari ham saqlanib qolinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda «Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida»gi 967-sonli qaroriga muvofiq, OTMlarning mustaqilligi, akademik erkinliklar, resurslarni mustaqil boshqarish, strategik qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos yaratib, davlat aralashuvining roli kamaymoqda. Oliy ta'limdagi institutsional o'zgarishlar universitetlarning erkinlik darajasini kengaytirishga qaratilgan, chunki xaridorlarning turli guruhlariga taqdim etiladigan turli xil ta'lim shakllariga talab va taklifni tartibga solish jarayonida bozor mexanizmlari ko'pincha ma'muriy mexanizmlarga qaraganda samaralidir. Shunday ekan, oliy ta'lim boshqaruvinu erkinlashtirish va institutsional mustaqillik tamoyillarini olib kirish strategik qarorlar qabul qilish va amalga oshirishda samara beradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarida har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning taraqqiy etgan davlatlaridagi oliy ta'lim muassasalari bilan boshqaruv tizimi, moliyalash, akademik va ilmiy aloqalarini kuchaytirish orqali ilg'or tajribalarni o'rganib borishga va uni amaliyotda joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturida xalqaro tajribaga tayangan holda oliy ta'limning milliy tizimi sifatini oshirish, diplomlarni o'zaro tan olishda hamda talabalar va o'qituvchilar almashinuvida barcha ishtirokchi davlatlarni qo'llab-quvvatlovchi Bolonya jarayoniga qo'shilish masalasini hal etish chora-tadbirlarining muhimligi qayd etilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda xalqaro dastur loyihalari doirasida olib borilayotgan ishlar, Yevropa, Rossiya va Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilganligi, qo'shma diplom ta'lim faoliyatining kengayib borayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'limni markazlashtirilgan holda boshqaruvi xorijiy mamlakatlarning umummilliy siyosatlaridan kelib chiqqan holda oliy o'quv yurtlarining strategiyalar ishlab chiqiladi va zarur bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha kadrlarni tayyorlash zarurligidan kelib chiqqan holda ularni qo'shimcha ravishda moliyalashtiriladi. Mintaqaviy boshqaruv tashkilotlari oliy ta'lim tizimini rivojlantirish rejalarini shu mintaqa rivojlanish rejalariga qo'shadilar. Har bir mamlakat oliy ta'lim tizimini rivojlantirish siyosati shu mamlakat siyosatiga bog'liq.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga mustaqillik tamoyillarini joriy etish orqali ularni nazorat organi ko'rsatmalariga amal qilish yoki ruxsat olish zaruriyatisiz o'z faoliyatini amalga oshirish layoqati bilan ta'minlashga imkon beradi. Bu esa ularning o'z faoliyatiga doir qarorlar qabul qilishda to'la kuchga ega bo'lgan ta'lim muassasalarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday holda davlat organlari tomonidan ta'lim muassasalariga qo'yilgan har qanday cheklashlar, qoidalar yoki talablar mustaqillikga tamoyillariga zid hisoblanadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga akademik mustaqillik tamoyillarini sekin-astalik bilan joriy etish orqali OTMlarining talabalar kontingentiga, akademik o'quv dasturlariga, shuningdek monitoring qilish va ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash mexanizmlariga oid qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish layoqati ham tuxfa etadi. Professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv dasturlarining metodologik va asosli mazmunini aniqlay olish ilmiy erkinlikning asosi hisoblanadi. Bunday yondashuv mamlakatimiz oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy-ma'rifiy faoliyatini hech qanday tashqi aralashuvlarsiz amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, bu tamoyil OTMlarga talabalar va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq o'quv dasturlarini yangilash va takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida akademik mustaqillik darajasini rivojlanishiga va ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ko'pgina O'zbekiston OTMlari boshqaruvi jarayonida qarorlar qabul qilishning kichik organlariga integratsiya qilingan tashqi manfaatdor tomonlarni ishtirokini ta'minlash huquqiga ega emas. Shu bois mamlakatimiz OTMlariga akademik avtonomiyani berish orqali strategik boshqaruv tajribasiga ega bo'lgan va ilmiy akademik sohadan tashqarida bo'lgan rektorlarni ichki tanlash amaliyotini joriy etish ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, prorektorlarni yuqori vakolatli organ tomonidan tayinlash va lavozimidan ozod qilish hamda uning vakolat muddati haqida qaror qabul qilishning huquqiy asoslari yaratish zarurati ortib bormoqda.

Shu bilan birga O'zbekiston oliy ta'lim tizimida oliy ta'lim muassasasi rektori bo'lishga qo'yiladigan talablarni ham ko'rib chiqish zarur. Mavjud amaliyotga ko'ra OTM rektori professor bo'lishi, fan doktori ilmiy unvoniga ega bo'lishi talab etiladi. Biroq rektor noakademik muhit vakili bo'lishi mumkin emas. Bugungi kunda oliy ta'limni bozor kapitalizmi sharoitiga moslashtirish va unda bilim va ko'nikmalarni sotuvchi sifatida uning boshqaruvchisi noakademik muhitdan ham bo'lishi samarador ekanligi to'g'risida takliflar paydo bo'lmoqda. Shuningdek, rektorning vakolat muddati qonun bilan tartibga solinadigan mexanizmni ham yaratish lozim va OTMlarga mustaqil ravishda rektorning vakolat muddatini belgilash huquqini taqdim qilish lozim. Xorijiy tajribaga ko'ra, Yevropaning aksariyat mamlakatlarida rektorning vakolat muddati to'rt yildan iborat. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda shaxsning rektor sifatidagi vakolat muddati aniq belgilanmagan. Buyuk Britaniyada rektorning vakolat muddati belgilanmagan. Ko'pgina mamlakatlarda rektor ikkinchi muddatga qayta saylanishi mumkin. Fikrimizcha, rektorning vakolat muddatini aniq belgilanishi, ikkincha bo ham saylanish huquqini berish yoki bermaslik, shuningdek, uning vakolatigi yana nimalar kirishini avtonomiya tamoyillari asosida belgilab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodiyoti, ta'lim sohasidagi raqobat muhiti va jamoatchilik tomonidan tan olinishi o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirish, universitetlarning mas'uliyati va o'zini o'zi rivojlantirish uchun yetarli rag'batdir. Bunday sharoitda akademik erkinlik, universitetning ijroiya organining keraksiz aralashuvidan mustaqilligi uning muvaffaqiyatli ishlashi va raqobatbardoshligining kafolatidir. Faqatgina oliy ta'limning haqiqiy o'zini o'zi boshqarish va

akademik erkinlik kafolatlari sharoitida butun yurtimizda oliy ta'lim samaradorligini ta'minlash mumkin. Uning samaradorligi fikr, so'z erkinligi, yaratish, g'oyalar, yangi kontseptsiyalar va nazariyalarni yaratish qobiliyatiga mutanosibdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev S.O'. Jamiyatni ilmiy boshqarish va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar. – Toshkent.: Fan. 2019. – B.10.
2. Ahmedova N.K. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.TDPU. –B. 11.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi// Xalq so'zi. 2020 yil 30 dekabr.
4. <https://buyukkelajak.uz/uz/olij-talimning-tanazzuli-millatnin/> Oliy ta'limning tanazzuli millatning qulashidir yoxud oliy ta'lim vaziriga ochiq xat.
5. Adizov, Bobir Bakhtiyorovich (2020) Features of corporate governance in higher education system, "Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 4: Iss. 4, Article 15. (<https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss4/15>)